

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Iyun, 2026-yil

RAQAMLI INQILOB VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIRI

Raxmatova Mohinur G’ayrat qizi

Filologiya va tillarni o’qitish (yapon tili),

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros

xalqaro universiteti. FLJ-125

Email: raxmatovam848@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning dunyoga yoyilishi, iqtisodiyot va jamiyatdagi muhim o’rni, raqamli inqilob hamda sun’iy intellektning insonlar hayotiga o’tkazayotgan ta’siri, shuningdek, uning ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilingan. Maqolada raqamlashtirish jarayonida uchraydigan muammolarni hal qilish bo’yicha takliflar berilgan. Kalit so’zlar: sun’iy intellekt va onlayn dasturlar, raqamli hayot, sun’iy intellektning kasblarga ta’siri, texnologiyalarning inson hayotidagi ijobiy va salbiy tomonlari, Raqamli O’zbekiston – 2030, sun’iy intellektning ta’limdagi o’rni

Аннотация: В данной статье анализируется распространение цифровых технологий в мире, их важная роль в экономике и обществе, влияние цифровой революции и искусственного интеллекта на жизнь людей, а также его позитивные и негативные аспекты. В статье представлены идеи решения проблем, возникающих в процессе цифровизации.

Ключевые слова: искусственный интеллект и онлайн-программы, цифровая жизнь, влияние искусственного интеллекта на профессии, позитивные и негативные аспекты технологий в жизни человека, Цифровой Узбекистан - 2030, роль искусственного интеллекта в образовании.

Abstract: This article examines how digital technologies are spreading across the world and why they are important for the economy and society. It analyzes the impact of the digital revolution and artificial intelligence (AI) on human life, including the advantages and disadvantages of digital technology. Also, the article gives ideas on how to solve the problems that happen during digitalization.

Keywords: artificial intelligence and online apps, digital life, AI impact on jobs, advantages and disadvantages of digital technology, Digital Uzbekistan – 2030, AI in education.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarga bo’lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, so’nggi o’n yil davomida ushbu jarayonning sur’ati sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda, bu o’z ichiga sun’iy intellekt, mobil aloqa, elektron tijorat va boshqalarni oladi. "Raqamli iqtisodiyot" atamasi birinchi bo’lib 1995-yilda Don Tepkott tomonidan chop etilgan “The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence” asarida qo’llangan. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida u iqtisodiyot, ta’lim, sog’liqni saqlash va boshqa ko’plab sohalarga kirib bordi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy majlisga murojaatnomasida 2030-

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Iyun, 2026-yil

yilgacha "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini amalga oshirishni taklif etdi. Ushbu maqolada raqamli inqilobning ijobiy va salbiy tomonlari ko'rib chiqiladi.

Hozirgi 21-asrda raqamli iqtisodiyot va texnologiyalar dunyoning har chekkasigacha tarqalgan bo'lib, deyarli hamma sohalarida qo'llaniladi. "Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini tahlil qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tartib qilishdir." (Kurpayanidi va ilyosov, 2021). Raqamli inqilob esa: analog va mexanik texnologiyalardan raqamli elektronika hamda axborot texnologiyalariga o'tish jarayonidir. Ya'ni qisqacha qilib aytganda aholi qog'ozli vositalardan voz kechib smartfon va kompyuterlarga o'tishi hisoblanadi. Bu nafaqat uzoqni yaqin qilish, balki insonlar uchun qiyin bo'lgan ishlarni ham osonlashtirishga yordam beradi. Bunga sun'iy intellekt texnologiyalari misol bo'la oladi. So'nggi yillarda sun'iy intellekt bo'yicha ta'lim dasturlarining kengayishi aholining raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Elektron tijorat, ya'ni elektron savdo, hisoblanadi. So'nggi yillarda ayniqsa karantin COVID-19 pandemiyasi davrida onlayn savdo platformalarining ommalashuvi keskin oshdi. Misol uchun Uzum Market, BTS Express va Korzinka Go, bular oldindan mavjud bo'lgan bo'lsa-da 2020-yildan keyin foydalanuvchilar sonining keskin oshishiga sabab bo'lgan. Bu onlayn platformalar orqali fuqarolar o'zlari istagan oziq-ovqat mahsulotlari yoki kiyim-kechaklarni buyurtma qila olishadi, bu esa odamlar uchun ancha vaqt tejashga yordam beradi va yana insonlar bu platformalardan foydalangan holda o'z bizneslarini ham o'z brendlari ostida yaratishlari mumkin. "Facebook global ijtimoiy media bozorining uchdan ikki qismini tashkil qiladi va dunyo iqtisodiyotining 90 foizidan ortig'ida eng yaxshi ijtimoiy media platformasi hisoblanadi. Amazon dunyodagi onlayn chakana savdo faoliyatining qariyb 40 foiz ulushiga ega va uning Amazon Web Services global bulut infratuzilmasi xizmatlari bozordagi ulushi ham shuncha ulushni tashkil etadi" (Saidmurodov va Umarov, 2021).

Raqamli texnologiyalarning muhim tarkibiy qismlaridan biri mobil aloqa va kompyuter texnologiyalaridir. Ya'ni, yuqorida keltirilgan misollarning barchasi aynan shu mobil aloqa va kompyuterlarga bog'liq. Smartfonlar va shaxsiy kompyuterlardan insonlar o'z ehtiyojlari uchun foydalanadilar. Bu texnologiyalar yaqinlar bilan uzoqda bo'lsa-da onlayn to'g'ridan to'g'ri muloqot qila olishga, onlayn kurslarda uyda o'tirib ilm olishga yordam beradi. Umuman olganda 21-asr bekorga texnologiyalar asri deyilmaydi, atrofimizdagi deyarli hamma narsalar raqamli texnologiyalarga bog'liq, shuning uchun ham insonlar o'z hayotlarini texnologiyalarsiz ko'ra olishmaydi.

"Raqamli O'zbekiston - 2030" davlat dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 farmoni bilan rasman tasdiqlangan bo'lib, "hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etiladi, 587 ming nafar kishini, va "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o'qitish tashkillashtiriladi. Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Iyun, 2026-yil

axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etiladi, hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish uchun tegishli oliy ta'lim muassasalari birlashtiriladi hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o'qitiladi" (Mirziyoyev, 2020)

Zamonaviy dunyoda garchi raqamli inqilob ko'plab ijobiy jihatlarga ega bo'lsa-da, bu texnologik burilish juda ko'p foydalanuvchilarga salbiy ta'sir ham ko'rsatib kelmoqda, bunga misol qilib onlayn firibgarlikni keltirish mumkin. Hozirgi vaqtda ko'plab jamiyat vakillari firibgarlar qurboniga aylanmoqda, misol uchun, internet do'konlari niqobi ostida odamlarni ishontirib pullarini o'zlashtirish va ularni aldab ketish, yoki birgina xabar orqali shaxsiy ma'lumotlar firibgarlar tomonidan o'g'irlanib bank kartalari va parollarni xakerlar qo'lga o'tib ketishi va aholi nomiga kreditlar olinishi ko'p kuzatilmoqda.

Keyingi muammo sifatida ijtimoiy muammolarni ko'rsatish mumkin, ya'ni ish o'rinlarining kamayishi, ayniqsa buxgalteriya sohasi. Chunki sun'iy intellekt asosidagi dasturlar hisob-kitoblarni, soliq chiqarishni ancha yaxshi uddalaydi.

Yana bir katta muammo bu raqamli tengsizlik, ya'ni shaharlarda, markaziy hududlarda raqamli hayot ancha rivojlanib ketgan bo'lsa-da bu narsa chekka qishloqlarga yetib bormayapti va qishloqlarda yashovchi aholining rivojlanishdan ortda qolishiga olib kelmoqda, bu narsa esa go'yo qishloq va shaharlar orasida yillarcha farq bordek ko'rsatadi.

“Shuningdek, texnologiyaga qaramlik jamiyatida ijtimoiy aloqalarning zaiflashishiga sabab bo'lmoqda. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlar o'z vaqtining katta qismini onlayn platformalarda o'tkazib, haqiqiy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolishmoqda”(Sultonov va Karimov, 2024).

Xulosa qilib aytganda, raqamli inqilob muayyan salbiy oqibatlarga ega bo'lsa-da, uning jamiyatga keltirgan ijobiy jihatlari ustun ekanligini ko'rsatadi. Maqolada keltirilgan barcha muammolar “Raqamli O'zbekiston — 2030” davlat dasturi doirasida tizimli ravishda hal etilishi mamlakatimizning texnologik va xavfsiz kelajagini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sultonov A.A., Karimov B.B. Raqamli texnologiyalarning Jamiyat, Ta'lim va Madaniyatga Ta'siri. Zenodo Open Research Europe.2024.Vol.12,NO.04, pp.1-14. (N_11,Zenodorepository.DOI:10.5281/zenodo.14376920; tps://zenodo.org/records/14376920)

2. Saidmurodov Sh., Umarov S. Raqamli iqtisodiyotning inqilobiy o'zgarishi va uning hozirgi kundagi zamonaviy oqibatlari // Jamiyat va innovatsiyalar (Общество и инновации-Society and innovations). - 2021. - Vol. 2, Special issue 4. - B. 782-786. DOI: 10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp782-786; Available at: https://www.researchgate.net/publication/352186845_Raqamli_iqtisodiyotning_inqilobiy_o%27zgarishi_va_uning_hozirgi_kundagi_zamonaviy_oqibatlari

3. Mirziyoyev Sh.M. “ Raqamli O'zbekiston - 2030” Strategiyasini tasdiqlash va Uni Samarali Amalga Oshirish Chora-Tadbirlari To'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonun Hujjatlari Ma'lumotlari Milliy Bazasi.2020. PF-6079-son, PP.1-32. (N_05, LexUz National

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

Database. LegalAct;<https://lex.uz/docs/5030957> 2026-yil

4. Kurpayanidi K.I., Ilyosov A.A. Raqamli Iqtisodiyotni Bugungi Holati: Muammo va Yechimlar. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar" Ilmiy Elektron Jurnal.2021.No.1, PP.214-225.(N_08, TSUE Journal. ID:00051;https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/33_Kurpayanidi_Ilyosov.pdf)